

KREDIT-MODUL TA'LIM TIZIMINING DIDAKTIK RIVOJLANISHI

*SamDChTI Pedagogika, psixologiya va
jismoniy madaiyat kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Najiyeva Sojida Nasirdiova*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonining kredit-modul tizimida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi zimmasiga juda ma’suliyatli vazifalar yuklani kelmoqda. Bu jarayonda pedagoglar va talabalar ta’lim jarayoinida qanday vazifalari bajarishlari lozimligi haqida gap oradi.

Kalit so‘z: Ta’lim, talaba, fan, mutaxassis, o‘quv dasturi, bazaviy fanlar, kredit, tanlov fanlar, kurs, kredit-modul.

Абстрактный. В данной статье на плечи педагога и обучающегося возлагаются весьма ответственные задачи в кредитно-модульной системе образовательного процесса. В этом процессе обсуждается, какие роли должны играть преподаватели и студенты в образовательном процессе.

Ключевые слова: Образование, студент, предмет, специалист, учебный план, базовые предметы, кредит, предметы по выбору, курс, кредитный модуль.

Abstract. This article presents the most important tasks assigned to the teacher and the learner in the credit-module system of the educational process. It discusses what tasks teachers and students should perform in the educational process.

Keywords: Education, student, subject, specialist, curriculum, basic subjects, credit, elective subjects, course, credit module.

Har bir ta’lim sohasi o‘zining ba’zaviy fanlariga ega. Bunday fanlar talabaning mutaxassis bo‘lib shakllanishi, mutaxassislikka oid boshqa fanlarni tushunishida muhim ahamiyatga ega. Masalan, pedagogika fakulteti talabalari uchun “Umumiy pedagogika”, “Oila pedagogikasi”, “Pedagogika tarixi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Bolalar pedagogikasi” kabi fanlar, psixologiya fakulteti talabalari uchun esa “Umumiy psixologiya”, “Oila psixologiyasi”, “Psixologiya tarixi”, “Bolalar psixologiyasi” kabi fanlar majburiy fanlar sirasiga kiradi. Bunday fanlar tegishli fakultetning har bir talabasi uchun muhim va, odatda, o‘quv dasturlarning dastlabki semestrlarida o‘qitiladi. Shuning uchun o‘quv dasturining dastlabki semestrlarida tanlov fanlari miqdori ancha cheklangan yoki dastur faqat majburiy fanlardan iborat bo‘lishi mumkin. Lekin talaba yuqori kursga bo‘lgani sari o‘quv dasturida tanlov fanlari uchun ajratilgan kreditlar miqdori ko‘payib borishi zarur ekanligi belgilangan. Buning sabablarini quyidagicha izohlashganlar:

Talaba sohaga oid bazaviy fanlarni o‘zlashtirgandan so‘ng unda sohaning muayyan yo‘nalishi bo‘yicha chuqurroq bilim egallashga qiziqish va ehtiyoj paydo bo‘lishi mumkin. Talaba kursdan-kursga o‘tgan sari u mutaxassis sifatida shakllanib borib, unda o‘zi uchun, o‘zi tanlov qilish ko‘nikmasi shakllanib borishini aytib o‘tgan. Qolaversa, tanlov huquqi talabalarni o‘z qiziqishlari, kelajakdagi faoliyat yo‘nalishlari haqida bosh qotirishga undaydi. Va nihoyat, kredit-modul tizimida talabalar tanlov fanini o‘z fakultetidan boshqa fakultetlarda ham olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerakligini ko‘rishimiz mumkin. Shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, ayrim mutaxassisliklar uchun sohalararo bilimlar katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Lekin bunda fakultetning kredit - modul tizimiga taaluqli qoidalari talaba qaysi kursda qancha miqdorgacha kreditlarni bunday fanlardan jamg‘arishi mumkinligini belgilab qo‘yishi kerak bo‘lgan. Masalan, fakultet kredit-modul qoidalari talaba 1-kursni tamomlagandan so‘ng yuqori kurslar davomida maksimum 12 kreditni boshqa fakultetlarda olingan fanlar hisobiga jamg‘arishi mumkinligini belgilab qo‘yishi mumkin. Lekin bunga, odatda, dekanning ruxsati bilan yo‘l qo‘yilgan. Talaba tanlovni tanlov fanlari ro‘yxatidan o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshirishi mumkin lekin u baribir dastur so‘ngiga qadar belgilangan miqdordagi kreditlarni tanlov fanlari hisobiga jamg‘arishi zarur.

Ta’lim jarayonining kredit-modul tizimida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi zimmasiga juda ma’suliyatli vazifalar yuklanishiga guvoh bo‘ldik. Bu jarayonda ijodkor talaba o‘z qobiliyat va iste’dodini namoyon etishi uchun u chinakkam ilmiy tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lshi kerak. Talabada dunyoqarash, his qilish mahorati, donolik, ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol, boy fantaziya va shu bilan birga tasavvurlar shakllangan bo‘lmog‘i darkor. Bular mujassamlashib talabadagi bilim, ko‘nikma, malakalar orqali ijodkorligini shakllantiradi.

Universitetda o‘tiladigan fanlar va modullar bir sohaga tegishli bo‘lsada, ular o‘z murakkablik darajasiga ko‘ra (complexity level) farqlanishi mumkin. Masalan, pedagogika fanining bir nechta darajalari mavjud. Talaba o‘qishi davomida pedagogika fanining bir nechta darajalarini o‘rganishiga to‘g‘ri kelishi mumkin: “Umumiy pedagogika”, “Bolalar pedagogikasi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Oila pedagogikasi”, “Maxsus pedagogika”, “Pedagogik texnologiya”. Shuning uchun fanlar OTM o‘quv dasturlarida izchillik asosida joylashtiriladi. OTM o‘quv dasturlaridagi fanlarni o‘z darajalariga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linishi mumkin:

Boshlang‘ich darajadagi fanlar (Basic level courses)

O‘rta darajadagi fanlar (Intermediate level courses)

Yuqori darajadagi fanlar (Advanced level courses)

Maxsus darajadagi fanlar (Special level courses)

Ya’ni, talaba semestr dan - semestrga, kursdan - kursga o‘tgani sayin, dasturdagi fanlar o‘z darajasiga ko‘ra murakkablashib boradi. Bunda bir fanni o‘rganish talabadan

avval o'sha fanni tushunishga xizmat qiluvchi boshqa fanni o'zlashtirishni taqozo etadi. Masalan, odatda, talaba "Oila pedagogikasi" fanini yaxshiroq tushunishi uchun u avval, "Umumiy pedagogika" fanini o'zlashtirishi zarur bo'ladi. Buni g'arb universitetlarida "course prerequisite" deb atashadi, ya'ni talaba "Oila pedagogikasi" fanini boshlashi uchun avval "Umumiy pedagogika" fanini tugallashi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, OTMlar kredit-modul tizimiga o'tgandan so'ng ularning o'quv dasturiga juda ko'p tanlov fanlari ham kirib keladi. Buning natijasida, o'quv dasturda fanlar o'z turlariga ko'ra majburiy va tanlov fanlariga ajratiladi. Muammo shundaki, o'quv dasturidagi fanlarning bu jihatlarini (fanlarning darajalarini, izchilligini, bir fanning boshqa fan bilan bog'liqligini, turlarini) shunchaki fanlarning nomlariga qarab tushunish qiyin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ECTS kredit-modul tizimining asosiy tamoyillaridan biri - bu ta'limni shaffof tarzda tashkil etishdir.

Shunday ekan, o'quv daturidagi fanlarning bunday izchilligini, bir fanning boshqa fan bilan bog'liqligi turlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni talabalarga qanday qilib shaffof va qulay usulda yetkazish mumkin degan savol tug'ilishi mumkin. ECTS kredit-modul tizimida bu - maqsadlarga fanlarni mantiqiy ravishda kodlashtirish orqali erishishga harakat qilishgan. Bunda fanlarning o'z darajasi, turi va u haqidagi boshqa ma'lumotlarni ifoda etuvchi belgi (level descriptor) va fanning turini bildiruvchi belgi (Type descriptor) kodlarni joriy etib, ularni tasniflab chiqganlar.

Fanlarning darajasiga ko'ra ularni 100, 200, 300, 400 va hokazo darajadagi fanlarga ajratib, shu asosda ularning kodlarini yaratish mumkinligini belgilashganlar. Fan kodida uni majburiy yoki tanlov fani ekanligini bildiruvchi biror bir belgini ko'rsatish ham talaba uchun juda foydalidir (masalan fan kodida majburiy fanlar uchun M (mandatory), tanlov fanlari uchun E (elective)). Bundan tashqari, fanga ajratilgan kreditlar miqdorining fan kodida aks etishi talabalarga tezkor usulda ma'lumot yetkazishga xizmat qilgan.

Masalan, "Umumiy pedagogika" va "Bolalar pedagogikasi" fanlarini quyidagicha kodlash mumkin: "Umumiy pedagogika" -UMPEDM 22/4 2004, "Bolalar pedagogikasi" - BOPEDE 22/3 4004. Bunda, dastlabki to'rtta harf fanning o'ziga xos kodi, keyingi "M" yoki "E" harflari fanlarning turlari, 200 va 400 raqamlari fanlarni darajasini anglatishini belgilashgan, oxirgi 4 raqami esa ushbu fanlarga ajratilgan kreditlar sonini anglatgan. Bundan yuqorida keltirilgan misolda talaba fanning kodiga qarab turib, tezkor va qulay tarzda o'ziga kerakli bo'lgan uchta ma'lumotni olishini ko'rishimiz mumkin bular:

- 1) fanni majburiy yoki tanlov fani ekanligi haqidagi ma'lumot,
- 2) fanning darajasi haqidagi ma'lumot,
- 3) fanga ajratilgan kreditlar to'g'risidagi ma'lumot.

Fanlarning bu tarzda kodlashtirilishi o'quv dasturini boshqarishni osonlashtirgan.

OTM o‘quv dasturidagi fanlarning kodlashtirish qoidalari, koddagi har bir element ma’nosи o‘qituvchi va talabalarga o‘quv yilining dastlabki kunlarida yetkazilishi kerakligi belgilangan.

Adaiyotlar ro‘yxati

1. Avliyoqulov N.H. Pedagogicheskaya texnologiya-Toshkent:Aloqachi, 2009-148 b
2. Avlyaqulov N.X., Musaeva N.N.Pedagogik texnologiya.Toshkent: ChomponNMIU-2012,-208 b
3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T., 2007. – 183 b.
4. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi, 2006. - 160 b.
5. Azizzodjaeva N.N.; [Pod obh. red. B.G. Kado‘rova]; Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo: Ucheb. posob. dlya magistraturo‘ vsex spetsialnostey / M-vo vo‘ssh. i sred. spets. obrazovaniya Respublikи Uzbekistan. — T.: Izdatelsko-poligraficheskiy tvorcheskiy dom imeni Chulpana, 2005. - 200 s.
6. Ahmedjonova A. va boshq. Komil inson davr talabi. Toshkent. Yangi asr avlodи, 2004, 150 bet.
7. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy pedagogika.-Toshkent:2015 y. -799 b.
8. Avazboev A.I., Ismadiyarov Ya.U. -Kasbiy pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi, 2008. -106 b.
9. Azizzxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: Nizomiy nomli TDPU, 2000. – 52 b.
10. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. - 84 bet.
11. Raxmanqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi . Toshkent: 1999-200 b
12. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. UMK. – Toshkent, 2016. – B. 75
13. Usmonov B. Sh. Xabibullaev R. A. Oliy o‘quvyurtlarida o‘quv jarayonini Kredit-modul tizimida tashkilq ilish. -Toshkent: Tafakkur, 2020.-120 b.
14. O‘rinov Voxid O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Muassasalarida ECTS Kredit-Modul Tizimi- Toshkent: Tafakkur, 220- 64 b.
15. Olimov Sh., Umarov V. Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish. Monografiya. – T., 2011. – 100 b.